


Bayramga tuhfa: 62 ming aholini ichimlik suvi bilan ta'minlovchi loyihaning birinchi bosqichi ishga tushirildi



Xabar berganimizdek, Termiz tumani “Sabzipoya” mahallasi hududida Termiz tumani va Termiz shahridagi 15,5 mingta xonadon, 62 ming aholini uzluksiz toza ichimlik suvi bilan ta'minlovchi, qiymati 81 mlrd so'mlik yirik loyiha amalga oshirilmoqda.

Bugun ushbu loyihaning birinchi bosqichi ishga tushirilib, Termiz tumani markazidagi mahallalarga ichimlik suvi yetkazib berish boshlandi. Shuningdek, “Surxondaryo suv ta'minoti” MChJning Termiz tumani bo'limi uchun yangidan bunyod etilgan bino ham foydalanishga topshirildi.

Yangi binoning ochilish marosimida viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov ishtirok etib, nuroniylar bilan suhbatlashdi. Nuroniylar Prezidentimizning mahallalar infratuzilmasini yaxshilashga qaratayotgan e'tibori sabab Termiz tumanida 20 yildan buyon muammo bo'lib kelgan toza ichimlik suvi masalasi hal bo'lganligini ta'kidlashdi.

Tadbir ishtirokchilari yangi laboratoriya binosida yaratilgan sharoitlar bilan tanishishdi. Shundan so'ng, viloyat rahbari tumanning “Yangi hayot” mahallasidagi xonadonlarda bo'lib, toza ichimlik suvi yetkazib berilishini ko'zdan kechirdi va xonadon sohiblari bilan suhbatlashdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)